

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

Maxmudov Muxtorjon Abdumalik o'g'li

Namanagan muhandislik qurilish instituti, magistrant

Email: muxtorjon019@gmail.com

Tel: (91) 281 99 98

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari va rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilish, huquqiy-normativ bazani takomillashtirish va iqtisodiy islohotlar kontekstida yangicha yondashuvlar asosida ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish maqsadida, tadqiqot iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlar, qiyosiy va sistemali yondashuvlar, monografik va ekspert baholash usullarini o'z ichiga olgan metodologik yondashuv orqali amalga oshirilishi yoritib berilgan. Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy-normativ va iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirish yo'llari ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat tomonidan tartibga solish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy mexanizmlar, huquqiy-me'yoriy baza, davlat siyosati, tadbirkorlik sub'ektlari, tadbirkorlik muhiti, tartibga solish mexanizmlari, iqtisodiy islohotlar, biznesni rivojlantirish, davlat qo'llab-quvvatlashi.

Annotation: This article describes the implementation of the research through a methodological approach that includes economic analysis, statistical data, comparative and systematic approaches, monographic and expert assessment methods, in order to comprehensively analyze the modern mechanisms and development trends of state regulation of small business and private entrepreneurship in our country, to develop scientifically based practical proposals based on new approaches in the context of improving the legal and regulatory framework and economic reforms. As the main result of the research, scientifically based proposals on legal and regulatory and economic mechanisms of state regulation of small business and private entrepreneurship and ways to more effectively implement state policy were also developed.

Key words: state regulation, small business, private entrepreneurship, economic mechanisms, legal and regulatory framework, state policy, business entities, business environment, regulatory mechanisms, economic reforms, business development, state support.

Аннотация: В данной статье в целях всестороннего анализа современных механизмов и тенденций развития государственного регулирования малого бизнеса и частного предпринимательства в нашей стране, совершенствования нормативно-правовой базы и разработки научно обоснованных практических предложений, основанных на новых подходах в условиях экономической объясняются реформы, исследования, экономический анализ, внедрение статистических данных с помощью методологического подхода, включающего данные, сравнительный и систематический подходы, монографические и экспертные методы оценки. В качестве основного результата

исследования также разработаны научно обоснованные предложения по нормативно-правовым и экономическим механизмам государственного регулирования малого бизнеса и частного предпринимательства и путям более эффективной реализации государственной политики.

Ключевые слова: государственное регулирование, малый бизнес, частное предпринимательство, экономические механизмы, нормативно-правовая база, государственная политика, субъекты предпринимательства, бизнес-среда, механизмы регулирования, экономические реформы, развитие бизнеса, государственная поддержка.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Ammo turli davlatlarda turlicha tartibga solish choralari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish milliy modelni rivojlantirish nuqtai-nazaridan yondashilgan. «Xususiy sektor va tadbirkorlikning rivojlanishi ortga qaytmas jarayonga aylandi»¹. Shuning uchun hozirgi kunda respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Qolaversa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda va davlat tomonidan tartibga solish masalalari hozirda dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-son hamda "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-son qarorlariga muvofiq kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturini realizatsiya qilish nazarda tutilgan.

Ushbu qabul qilingan me'yoriy hujjatlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishni yanada qulaylashtirish imkoniyati yaratildi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subektlarini davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari ijrosi natijasida 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida jami 146,6 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi.

Ilmiy ishning maqsadi hozirgi davrdagi iqtisodiy islohotlarga ko'ra mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning yanada erkinlashtirish va yangicha yondashuvlar asosida ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022 // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslarini yoritish;
- milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyatini ochib berish;
- kichik biznes subektlarini davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribalarini ifoda etish;
- O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish;
- Yangi O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishdagi sa’y-harakatlarni izohlash;
- O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishdagi muammolarni aniqlash va belgilash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda kredit-bank tizimini faollashtirish bo‘yicha ishlanma yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning soliq imtiyozlarini qo‘llash asosida takomillashtirish bo‘yicha mulohazalar yuritish;
- O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va yanada rivojlantirishni istiqbollariga doir fikr-mulohazalarni ifoda etish.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institusional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Biroq, yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalari to‘la yechimga ega bo‘ldi, deb xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Ayni davrda respublikaning turli hududlarida kichik biznes sub’yektlarini rivojlantirish yo‘lida talaygina muammolar borligi ommaviy axborot vositalarida va iqtisodchi olimlarning matbuotdagi chiqishlarida qayd etilmoqda. Masalan, tadbirkorlarga kredit berish, soliqqa tortish, litsenziyalash va sug‘urtalash tizimlarida xanuzgacha yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Shu bois ushbu tanlangan mavzu o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi va bu muammolarni bartaraf etish biz kabi bo‘lajak iqtisodchilarining ham muhim vazifalaridan hisolanadi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Ushbu mavzuga doir masalalar bir qator xorijlik iqtisodchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, A.Smit², Yo.Shumpeter³, J.M.Keyns⁴, P.Xizrich, M.Piters⁵, F.Kotler⁶, P.A.Samuelson⁷, V.D.Nordxaus kabi taniqli iqtisodchilarning bu sohada bir qator nazariy asarlari yaratilgan.

² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2016, – 1056 с.

³ Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: “Мысль”, 1982, С. 159.

⁴ Кейнс Дж. М. [Общая теория занятости, процента и денег. Избранное](#). – М.: Эксмо, 2007. С. 166–169 и 370.

⁵ Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. – М.: 1991. – 220 с.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalari bo'yicha rossiyalik iqtisodchilarning ham bir qator ilmiy asarlari mavjud Ularni orasida N.E.Simionova⁸, A.O.Blinov⁹, M.M.Maksimtsev¹⁰, V.Ya.Gorfinkel¹¹, V.A.Shvandar¹², E.M.Kupryakov¹³, V.S.Katkalo, A.Yu.Panibratov, A.N.Dyatlov¹⁴ va boshqalarni nomlarini keltirish mumkin.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy jihatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha, S.S.G'ulomov¹⁵, Yo.A.Abdullayev¹⁶, M.R.Boltabayev¹⁷, M.S.Kosimova, Sh.J.Ergashxodjayeva, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, A.A.Xadjimuratov¹⁸ kabilarning ishlarini qayd etish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalari U.V.G'ofurov, Sh.I.Mustafaqulov, O.A.Aripov, T.A.Mamajanova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilib, tadqiq qilingan¹⁹.

Biroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning aynan hozirgi davr bilan bog'liq muammolari hali yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

⁶ Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. / Пер. с англ. –М.: Издательский дом «Вильямс», 2007. – 656 с. ил – Парал. тит. англ.

⁷ Пол А. Самуэльсон, Вильям Д.Нордхаус. Экономика: Пер с англ. –М.: «Лаборатория Базовых Знаний», 2000. -800 с.: ил.

⁸ Симионова Н. Е. Понятие бизнес-среды предприятия. <http://www.involveman.ru/kars-572-1.html> // involveman: привлечение менеджмента. (Электронный ресурс).

⁹ Блинов А. О. Малое предпринимательство. Организационные и правовые основы деятельности. – 2-е изд. – М.: «Ось-89», 1998. – 336 с

¹⁰ Менеджмент малого бизнеса: Учебник/ Под ред. проф. М.М.Максимцева и проф. В.Я.Горфинкеля. –М.: Вузовский учебник, 2007. – 269 с.

¹¹ Курс предпринимательства: Учебник для вузов. / В.Я.Горфинкель, В.А.Швандар, Е.М.Купряков и др.; – М.: Финансы, ЮНИТИ, 1997. – 439 с.

¹² Малый бизнес: Организация, экономика, управление: учеб. пособие/ под ред. В.Я.Горфинкеля, В.А.Швандара. – 3-е изд., переработ. И доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 495 с.

¹³ Каткало В.С., Панибратов А.Ю. Основы бизнеса: Учебник. –СПб.: Издат. дом С.-Претерб. гос. ун-та, 2006. – 290 с.

¹⁴ Дятлов А.Н. Общий менеджмент: концепции и комментарии: Учебник. / А. Н. Дятлов, М. В. Плотников, И. А. Мutowин. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 400 с.

¹⁵ G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Т.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002. – 365 b.

¹⁶ bdullayev Yo., Karimov F. kichik biznes va Tadbirkorlik asoslari. 100 savol va 100 javob (1-qism), Т.: “Mehnat”, 2000. – 347 b

¹⁷ Boltabayev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. –Т.: Iqtisodiyot, 2012. – 274 b.

¹⁸ Хаджимуратов А.А. Предпринимательство: Сущность и основные компоненты. –СПб.: Изд. Санкт-Петербургского Университета Экономики и финансов. 1995. – 73 b

¹⁹ Aripov O.A. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. -Т.: “IMPRESS MEDIA” nashrioyti, 2021. – 225 b.

Tadqiqotning metodologik asoslarini shakllantirish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning murakkab va ko'p qirrali xususiyatlarini inobatga olgan holda, kompleks yondashuv asosidagi metodologik instrumentlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik bazasi quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida shakllantirildi:

Birinchidan, mavzu doirasida chuqur nazariy tadqiqotlar olib borish maqsadida keng qamrovli ilmiy-nazariy manbalar o'rganildi. Bunda mahalliy va xorijiy olimlarning fundamental tadqiqotlari, ilmiy maqolalari hamda monografiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro ekspertlar tomonidan tayyorlangan tahliliy materiallar ham atroflicha o'rganildi.

Ikkinchidan, empirik ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda boshqa vakolatli organlarning rasmiy statistik ma'lumotlari va hisobotlari tanlab olindi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, sohadagi mavjud muammolarni chuqur o'rganish maqsadida kichik biznes sub'ektlari va davlat organlari vakillari o'rtasida maxsus so'rovnomalar o'tkazildi hamda chuqurlashtirilgan intervyular tashkil etildi. Olingan natijalar ekspert baholash usuli orqali qayta tahlil qilindi.

To'rtinchidan, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish maqsadida qiyosiy tahlil va benchmarking usullaridan foydalanildi. Bu esa milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Yuqorida keltirilgan metodologik yondashuvlar asosida olingan natijalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy holatini xolisona baholash hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR:

Ko'pgina bozor nazariyotchilari bozor mexanizmi jamiyatdagi umumiy farovonlikni maksimal darajada oshiradi, deb ta'kidlaydilar. Shunga asoslanib, ular iqtisodiyotni o'z-o'zini tartibga solish va narxlar nazoratini yo'q qilish, kapital bozorini tartibga solish, savdo to'siqlarini pasaytirish tarafdoridir. Shuningdek, ular davlatning iqtisodiyotga ta'sirini, ayniqsa, mulkni xususiylashtirish yo'li bilan kamaytirish mumkinligini e'tirof etishadi. Buning natijasida narxlarning moslashuvchanligi va ularning talab va taklif o'zgarishiga darhol munosabati bilinadi. Shu tarzda jamiyatdagi umumiy farovonlik maksimal darajaga ko'tarilib muvozanat holati ta'minadi. Yuzaga kelgan raqobat muhiti, o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Darhaqiqat, A.Smit davridan keyingi yillardan boshlab iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish muhimligi va bu ta'sir shart-sharoit yaratish nuqtai-nazaridan bo'lishi kerakligi, juda ko'p taniqli iqtisodchilarning asarlarida qayd etilgan²⁰.

Taniqli iqtisodchi Dj. M.Keyns ta'limotida bozor iqtisodiyotida davlat aralashuvining zarurligi e'tirof etiladi. Uning fikricha, «iqtisodiy siyosat shunday vosita sifatida zarurki, u

²⁰ Головастова Т.И., Батурич А.В., Пономарев И.В. Изменения в экономических методологиях от А.Смита до настоящего времени. // Вестник Удмуртского университета. Т. 26., вып. 6. 2016. С. 17.

iqtisodiyotni inqiroz holatidan chiqarib, jami talab bilan jami taklifni muvozanatga olib keladi, shuningdek, barqaror rivojlanishga ko'maklashadi»²¹. Keyns ta'limoti natijasida bozor iqtisodiyotini o'sha davr holati bilan qayd etganda, yangicha tushunishga olib keldi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda, davlat vositalari tomonidan iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Bu ta'sir ko'rsatish insoniyat taraqqiyotiga ijobiy jihatlarini namoyon etishi kerak. Davlat tomonidan tartibga solish orqali milliy iqtisodiyot tarmoqlari, xususan, kichik biznes va tadbirkorlikni ham rivojlantirishga erishish imkoniyatlari yaratiladi. Bu imkoniyatlar davlat boshqaruv organlari orqali, ya'ni, mahalliy ijro etuvchi organlar, soliq, bank va boshqa huquqiy tashkilotlar ta'sirida yaratiladi. Bu boshqaruv organlari bozordagi kichik biznes sub'yektlariga shart-sharoit yaratib berish va ularni faollashuvini tashkil etishga yordamlashadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish, mavjud tuzumni mustahkamlash va takomillashtirish, o'zgarib boruvchi sharoitlarga moslashtirish hisoblanadi. Demak, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hozirgi zamon iqtisodiy tizimlarining asosiy xarakterli belgisi hisoblanadi²².

Ayni paytda davlatning bevosita tartibga solish funksiyalari, o'z-o'zidan ishlaydigan bozor mexanizmi faoliyatini samarali ta'minlashga shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'lishi kerak. Davlatning o'zi yomon oqibatlarga olib keluvchi bozor jarayonlarini cheklab borishga moyillik asosidagi boshqaruvni yo'lga qo'yish lozim. Shu bilan birga, agar bozor mexanizmi yomon hal etadigan yoki umuman hal eta olmaydigan muammolar yuzaga kelganda, ularni yechimli bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lgan siyosatni qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, jahon miqyosida milliy manfaatlarni himoyalash asosida millatni tanitadigan va milliy iqtisodiyot rivoji yo'lida shakllangan brend mahsulotlarini yaratish orqali jahon hamjamiyati tarkibidagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Bu albatta juda muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish deganda, zamonaviy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish maqsadidagi muhitni davlat organlari orqali iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy va siyosiy jihatdan ta'minlash tizimini tushunish lozim.

E'tirof etish kerakki, «G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlarida (Fransiya, GFR, Niderlandiya, Skandinaviya, Avstriya, Ispaniya), Yaponiya, Osiyo va Lotin Amerikasida jadal rivojlanayotgan bir qator mamlakatlarda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining eng takomillashgan ko'rinishlari mavjud bo'lgan. Bu davlatlarga ko'ra AQSH, Kanada va Avstraliyada davlat tomonidan tartibga solish nisbatan kuchsizroq bo'lib, Yevropadan farqli bu davlatlarda Ikkinchi jahon urushining oqibatlariga o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy larzalar, socialistik lagerning paydo bo'lishi va keyinchalik uning tarqalishi ro'y bermagan. Aksincha, bu davlatlarda

²¹ Аманжаев Т.Т. Роль государства при переходе к рыночной экономике // Вестник Московского Университета. Серия 6. Экономика. 1996. №2. С. 71 – 89.


²² Yusupov R.A., Begmatova Sh.A. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-uslubiy jihatlari. // Iqtisod va moliya. №5, 2018. 5-bet.

xususiy kapitalning kuchli ta'siri bo'lgan. Shunga qaramasdan, ushbu mamlakatlarda, ayniqsa, ishsizlik va inflyasiya darajasi yuqori bo'lgan vaziyatlarda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish muhim rol o'ynaydi»²³.

Demak, davlat o'z funksiyasini bajarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga va uning faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaratishga ko'maklashadigan choralarni qo'llab boradi. Davlat bozor infratuzilmalarini faol ishlashini ta'minlaydigan mexanizmlarni ishga solishi kerak.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish uchun davlat o'zining boshqaruvi orqali tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradiki, buning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes muhiti yuzaga keladi (1-rasm).

Kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish – bu iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni ongli ravishda boshqaruv organlari ishtirokida shakllantirish, biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish, shuningdek, ushbu sektorga imtiyozli shartlar asosida moddiy va moliyaviy resurslarni jalb etish demakdir.



1-rasm Davlat boshqaruvining komponentlari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartibga solish²⁴


Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish bir qator usullardan foydalaniladi (2-rasm). Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

²³ Харченко Е.В. Система государственного и муниципального управления. Учебник. –М.: КНОРУС, 2009. С. 46.

²⁴ Aripov O.A. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan. -T.: "Lesson press" nashriyoti, 2021. 11-bet

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Davlat tomonidan tartibga solishdagi bevosita ta'sir qilish usullari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni huquqiy jihatdan kafolatlab, ularga bozor muhitida faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita ta'sir usulida, iqtisodiy natijaga operativ erishish imkoni bor. Shuning uchun bu usulda tartibga solish yuqori samaradorlik asosida amalga oshishi mumkin. Biroq, bunday usul ayrim holatlarda bozor jarayonlariga u yoki bu darajadagi sun'iy to'siqlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.



2-rasm. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish usullari²⁵

Davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita ta'sir qilish usullari kichik biznes sub'yektlari faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmaydi. Bunday usullar bozor sub'yektlari faoliyatiga sharoitlar yaratib, ularning iqtisodiy maqsadlariga erishishlari uchun yo'l ochib beradi. Bilvosita ta'sir usullari bozor jarayonlarini buzmaydi, taraqqiyotning dinamik holatini nomuvofiqlikka olib kelmaydi. Bilvosita ta'sir usullarining kamchiligi davlat tomonidan choralar qo'llash boshlangan davrdan, to xo'jalik yuritish o'zgarishlarida natijalarga erishguncha bo'lgan muayyan vaqt mobaynida kuzatiladi. Lekin bu vaqtincha holatdir.

Davlat tomonidan tartibga solish usullari orasida tashqi iqtisodiy usullar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va tashqi savdo aloqalarining keng shakllanishiga olib keluvchi global muhit shakllanadiki, o'z navbatida ushbu sektorni rivojlanishi globallashtirish jarayonlarini kelib chiqishiga ham qisman ta'sir etadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- davlat iqtisodiyotni tartiblaganda jamiyat manfaatlarini ko'zlashi, umumiy iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlashi zarur;
- davlat iqtisodiyotni tartiblashda ma'muriy vositalardan emas, balki xilma-xil iqtisodiy vositalar majmuidan foydalanishi zarur;
- davlat tadbirkorlarning erkin, o'zaro raqobat qilishlari uchun sharoit yaratishi talab qilinadi, davlat raqobat kurashi ishtirokchisi emas, balki uning oliy hakami vazifasini bajaradi;
- davlat siyosati mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, hamkorlik va hamjihatlikni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sish va ommaviy farovonlikni ta'minlashga qaratilishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, bugungi kunga kelib davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish zarurligi deyarli barcha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmoqda. Milliy taraqqiyot modelimizning asosiy tamoyillaridan biri – davlat bosh islohotchilik roli hisoblanib, mavjud iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalangan holda barcha kuchlarni yagona maqsad sari yo'naltirishda davlatning tartibga soluvchi vazifasidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan tartibga solishni rivojlantirishning hozirgi bosqichi kichik korxonalar ehtiyojlarini kredit-moliyaviy ta'minlashning samarali mexanizmini tez fursatda yaratilishini taqozo etib, busiz tarmoqlarda biznes va tadbirkorlik ko'lamini istiqbolli kengaytirish, ular tomonidan jahon bozorida o'ziga xos talabga ega sifatli mahsulot chiqarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishiga imkon beruvchi sof raqobatbardoshlikka erishish mumkin emas. Kichik korxonalar ehtiyojlarini moliyaviy-iqtisodiy ta'minlash tizimini shakllantirish tarixini diqqat bilan tahlil qilish va iqtisodiyot tarmoqlarida amalda bo'lgan mexanizmning samaradorligini hamda uning

²⁵ Aripov O.A. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan. -T.: "Lesson press" nashriyoti, 2021. 13-bet.

mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga muvofiqligini obektiv baholash maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznesni shakllanishiga oid xalqaro tajriba ko'rsatadiki, kichik korxonalar iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida ularning tashqi iqtisodiy potensialini kengaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksi namoyon bo'ladi. Ularning orasida amaliysi davlat boshqaruv organlarining keskin raqobat sharoitida ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishda boy tajribaga ega va moliyaviy-xo'jalik faoliyatning xalqaro standartlarini yaxshi o'zlashtirgan yirik xorijiy firma va kompaniyalar bilan uzoq muddatli kooperativ aloqalarni o'rnatishga ko'maklashish hisoblanadi.

Shunday qilib, mamlakatimizning iqtisodiyot tarmoqlarida o'z vaqtida qulay investision muhitni shakllantirish kichik biznes ehtiyojlariga moliyaviy-iqtisodiy ko'maklashish mexanizmini takomillashtirishning zaruriy sharti sifatida qarab chiqishni talab etadi. Bu uni rivojlantirish ehtiyojlariga xorijiy investisiyalar oqimi geografiyasi va masshtabini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umumrespublika miqyosida, O'zbekistonning barcha viloyatlarida rivojlanishni ta'minlash uchun kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqildi, kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning tarmog'i yaratildi, kichik tadbirkorlik subektlarining moliyaviy, moddiy-texnik va axborot resurslariga kirish erkinligini yengillashtirishga yo'naltirilgan konkret metodlar amaliyotga joriy etildi.

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga oid quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini samarali tashkil etish maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan keng foydalanish lozim;
- respublika va viloyatlar kesimidagi boshqaruv idoralarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan va davlat tomonidan tartibga solishni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan choralarni ko'rib borish, korrupsion vaziyatlarga barham berish uslublarini keng joriy etish zarur.
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatini moliyalashtirishda bank-kredit tizimidagi islohotlarni kengaytirish, buning uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish lozim;
- xorijiy investorlardan foydalanishni yo'lga qo'yish, eng zamonaviy loyihalarni taqdim etish orqali innovasion faoliyatni kuchaytirishga erishish choralarni ko'rish lozim;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari moliyaviy barqarorligini doimiy ta'minlab borish maqsadida hamda ular faoliyati davomida yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun davriy ravishda ular zimmasidagi soliq yuki darajasini aniqlash va qulaylik yaratish lozim;
- tadbirkorlik sohasiga investisiyalar (jumladan xorijiy), zamonaviy

texnologiya va jihozlar jalb etish, shuningdek, bozor infrastrukturasi institutlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

– eksport-import operatsiyalarida, xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda, tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha turli dastur va loyihalarni amalga oshirishda tadbirkorlik faoliyati sub‘yektlari ishtirokini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qo‘llash;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari moliyaviy ehtiyojlarni samarali moliyaviy ta‘minlash va iqtisodiy munosabatlarni faollashtirishni tashkil etish masalalari bo‘yicha xususiy tadbirkorlar uchun muntazam treninglar, seminarlar, prezintatsiyalar tashkil etish;

–

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda 69-II-sonli “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/31846>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PQ–4417-son “Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063#5844066>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni (28.01.2022-yil, PF-60-son).
5. Smit A. Исследование о природе и причинах богатства народов / A.Smit. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.
6. Marshall, A. Принципы политической экономии / A.Marshall. – Москва: Direkt-Media, 2012. – 415 с.;
7. Shumpeter Y. Теория экономического развития. – М.: Progress, 1985. –159 с.;
8. Kojima K. Micro and Macro - economic Models of Direct Foreign Investment: Toward a Synthesis / K. Kojima, T.
9. Ozawa // Hitotsubashi Journal of Economics. – 1984. - №.25 –P. 11-20.;
10. Keynes J. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Экономика, 1948. – С. 238-241.;
11. Agafonov A.A. Проектное финансирование как форма инвестиционного кредитования малого бизнеса /А.А. Агафонов // Экономика и

- предпринимательство.- 2014.- №5- ч.1.- С. 711.;
12. Классика экономической мысли: Сочинения. – М.: изд-во ЭКСМО –пресс, 2000.
 13. Mayburd Ye.M. Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. – М.: Дело, 1996.
 14. Nureyev R. M. Курс микроэкономики. Учебник для вузов. 2-е изд., изм. - М.: Издательство НОРМА (Издательская группа НОРМА-ИНФРА - М), 2000. - 572 с. С.319.
 15. Большой экономический словарь / Под ред. А.Н. Азрилиян. - 2-е изд. Доп. и перераб. - М.: Институт новой экономики, 1997. S. 207
 16. Vechkanov G.S., Vechkanov G.R. Современная экономическая энциклопедия / Г.С. Вечканов, Г.Р. Вечканов. - Спб., изд. «Лан», 2002.
 17. Sklyarets D. V. Направления усовершенствования институтсиональной среды формирования и функционирования региональных рынков продовольствия / Д.В.Скляретс // Экономика. Менеджмент. Предпринимательство. – 2013. – № 25(1). – S. 42-53.
 18. Abdullayev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – Т.: Mehnat, 2010. - 349 b.;
 19. Boltabayev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G‘oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjayev R. Kichik biznes va tadbirkorlik: O‘quv qo‘llanma. – Т.: Iqtisodiyot, 2010. – 275 b.;
 20. Xodjayev R., Egamberdiyev A. Kichik biznes va tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Iqtisod-moliya, 2008. – 105 b.;
 21. G‘ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. O‘quv qo‘llanma. -Т.: 2008. -365 b.,
 22. Eshov M.P. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari: monografiya. - Т, 2017. 80 b.;
 23. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: monografiya. – Т.: Moliya, 2016. – 208 b.
 24. Maxmudov E.A. Прямые иностранные инвестиции в экономику Узбекистан: достижения, проблемы и перспективы. – Toshkent: 2007.;
 25. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Diss. iqt. fan.doktori. Т.: 2004. 18 b.;
 26. Ayupov R.X., Xodjayev R.S.. Kichik biznesni boshqarish. O‘quv – uslubiy qo‘llanma.

- 2-qism. –T.: 2007. – S. 155 b.
27. Berkinov B.B.Aynaulov M.A. Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqish kooperasiyasi. T.:TDIU. 2005.
28. Bekmuradov A., S.T.Sattorov, J.To'rayev, K.Soliev, S.Ro'ziyev. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 3-qism. Kichik biznes va va tadbirkorlik rivoji - davr talabi. T.: TDIU, 2005. - 66 b.
29. Boltaboyev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva SH.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjayev R. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. – T.: 2010. – 274 b.
30. Vaxabov A.V., Xajibakiyev SH. X., Muminov N. G. Xorijiy investisiyalar. T.: Moliya – 2010. 328 b.
31. Vaxobov A.V., Abdullayev Yo.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. O'quv qo'llanma. T: "IQTISOD - MOLIYA", 2009. – 192 b.
32. Zinov V.T. i dr. Innovasionnoye razvitiye kompanii: upravleniye intellektualnyy resursami; ucheb. posob. /Lebedova T.Ya., Syganov S. A. - M.: Delo ANX, 2009. - 248 s.
33. Maxmudov M. A. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish, BMI, Namangan, 2023, 10-27 bb